

XAYDAROV Baxodir Maxmarjabovich

Dotsent, QK Xizmatchisi, Umumiy taktika kafedراسi o'qituvchisi

Tayanch so'z va iboralar: *Antonim nomlar, antrotoponim, arealli nomlar, ikkilamchi nomlar, detoponimizatsiya, dromonim, etnotoponim, gibrid nomlar, gidronim, indikator nomlar, zootoponim, makrotoponim, memorial nomlar, metafora yoki anatomik atamalar, mikrotoponim, oronim, oykonim, speleonim, toponim, topokalka, topoformant.*

“O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy-hududiy tuzilish, toponimik ob‘ektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risida”gi 276-1-sonli Qonuni, geografik ob‘ektlarning nomlari tug‘risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2011 yil 4 martda qabul kilingan, Senat tomonidan 2011 yil 26 avgustda ma‘qullangan O‘zbekiston Respublikasining Qonuni mavjud.

Ushbu qarorga muvofiq geografik ob‘ektlarni nomlash va qayta nomlash masalasida eng avvalo, joyning tabiiy xususiyatlari va tarixiy nomlarini hisobga olish maqsadga muvofiq. Zero, joyning tabiiy xususiyati geografik ob‘ekt nomida o‘z aksini topsa, u uzoq vaqt o‘zgartirilmasdan saqlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun topografik xaritalarni tuzishda toponimikaning tabiiy geografik jihatlarini atroflicha o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Joy qo‘shinlar faoliyatiga har tomonlama katta ta‘sir o‘tkazadi. Shu sababli joy jangovar vaziyatning topografik elementlaridan biri sifatida o‘rganiladi, unda qo‘shinlar bevosita qo‘yilgan vazifani bajaradilar.

Joyning topografik elementlari: relef, gidrografiya, tuproq-grunt, o‘simlik qoplami, aholi yashash joylari va yo‘llar to‘ri bilan harakterlanadi. Bu elementlar iqlim bilan qo‘shilib, birgalikda namoyon holda turli joy turlarini hosil qiladilar. Jumladan: tekis dasht, o‘rmonli botqoq, tog‘, cho‘l va boshqalar.

Ularning barchasi o'z navbatida jangovar harakatlarga turli tomondan va turli xilda ta'sir ko'rsatadi.

Jangni tashkillashtirish jarayonida joyni o'rganish va baholashda jangovar vaziyatning sharoitlaridan kelib chiqib va jangovar topshiriqni bajarishning eng samarali yo'lini topish kerak bo'ladi.

Joynining topografik xaritalar bilan o'rganish eng keng tarqalgan usul hisoblanadi. Shu sabali jangni rejalashtirish va tashkillashtirish davomida joyni o'rganish va baholash xarita bilan o'rganiladi.

Joyni xarita yordamida o'rganish jarayonida undagi mavjud bo'lgan topografik elementlar geografik joy nomlari bilan ataladi, masalan: aholi yashash joylari, gidrografik elementlar, relef, elementlari, aloqa yo'llari va hokozalar.

Bu esa harbiy xizmatchilarni joyni tug'ri o'rganishi va baholashiga katta yordam ko'rsatadi. Shu sababli toponimika fanidan bizga kerak bo'lgan qismini bilishimiz zarurdir.

Toponim bu, bir joydan ikkinchi joyning nomini farqlashga aytiladi. Bu so'z lotin tilidan olingan bo'lib, "**topos**" - yer, "**onoma**" - nom, ism degan mazmun beradi. Joy nomlarining yig'indisi **toponimiya** deb aytiladi. Joy nomlarini o'rganuvchi fan esa, **toponimika** deb aytiladi. Shundan kelib chiqib toponimika - joy nomlarini o'rganadigan fandır.

Harbiy topografiya fanini o'rganishda toponimika fanining o'rne beqiyosdir.

Joy nomlar bir-biriga uxshash bo'ladi tabiiyki har bir topografik element (shahar, qishloq, tog', chul, va hokozalar) tushunchalari aralashib ketishi mumkin. Shu sababli odamlar ularni ayrim-ayrim nomlar bilan ataydi.

Geografik ob'ektlar - Yerning hozirda yoki o'tmishda mavjud bo'lgan hamda muayyan o'rnatilgan joy bilan tavsiflanishidan kelib chiqishi

Toponimik sivilizatsiya quyidagi amaliy holatlarda o'z aksini topadi:

- nomlarga oid qonun-qoidalarga amal qilish;
- geografik nomlarni o'zboshimchalik bilan o'zgartirmaslik;
- toponimik atamalarni asl holicha, o'zaklarini buzmasdan talaffuz etish, grammatik jihatdan to'g'ri yozishga erishish;

- yangi geografik ob'ektlarga nom berishda joyning tabiiy-geografik holati, aholining etnografik xususiyati, tarixiyligidan kelib chiqqan holda yondashish.

Chunki toponimlarning tug'ri yozilishi ularning ma'no-mazmun jihatdan o'zgarib ketishining oldini oladi va nomlanish jarayonini tartibga solib turadi. Nomlanishning nozik tomoni, uning bittagina tovushning yangilish yozilishi tufayli, toponim mazmunining tamoman o'zgarib ketishidan iboratdir. Natijada o'sha nom butunlay boshqa bir ma'no kasb etadi. Masalan: Yakkabog' tumanidagi Kaltako'l qishlog'ining birgina "k" harfi o'rniga "q" harfining qo'llanishi tufayli Kaltaqo'l tarzida yozilishini misol qilish mumkin. Bu yerda Kaltaqo'l ikkita ma'no-mazmun kasb etmoqda. Dastlabki Kaltaqo'l-qisqa qo'l kabi anatomik ma'no kasb etsa, ikkinchidan kaltaqo'l - qo'l uchida yashovchi, ya'ni faqirlikda yashovchilar kabi ijtimoiy ma'no kasb etadi. Agar "q" urniga "k" harfi qo'llanilsa u kalta, qisqa yumaloq ko'l, ya'ni gidronimga aylanib qolganligini ko'ramiz. Bu birgina toponim misolida keltirilgan misol.

Ya'ni toponimlarning ma'lum bir grammatik qonun-qoida asosida, bir xil, standartlashtirilgan holda ifodalanishiga erishmoqda. Chunki toponimlarning yozilishini milliy standartlashtirish, rivojlangan davlatning suverenligini ko'rsatuvchi belgilardan biridir. Bu ishga BMT ham katta ahamiyat bermoqda. Hozircha 1:1 000 000, 1:500 000 va 1:200 000 masshtablardagi xaritalarda uchraydigan barcha geografik nomlar kompyuter hotirasida hisobga olinmoqda. Kelgusida esa bu ish 1:100 000 va 1:50 000 masshtablarda ham olib boriladi. Toponimlarning asosiy manbasi topografik xaritalar deb bilganimiz holda, ularning ayniqsa sobiq, shurolar hukumati davrida juda ko'p xato va kamchiliklar bilan tuzilganligini ko'ramiz. Masalan: Hisor tizmasi Gissar, Zarafshon daryosi Zeravshan tarzida berilib, ba'zan so'zlarning o'zagi kuchli o'zgarganligi uchun, ma'nosini mutlaqo' anglab bo'lmaz darajaga kelib koladi. Masalan:1:200 000 masshtabdagi Hisorning rus tilidagi topografik asosida Tyuberealand (Suvsiz tog'da) oronimi mavjud. Bu toponimning na rus, na o'zbek tilida qanday ma'no anglatishi noma'lumdir. Aslida esa Tubaliolang tarzida yozilmog'i kerak. Bu yerda "tuba" mahalliy termin bo'lib balandlik ma'nosini bersa, "olang"

tushunchasi ham halk termini sifatida yalanglik, balandlikdagi o‘tloq mazmunini beradi. Ya’ni ikki o‘zagdan iborat tepadagi yalanglik ma’nosini anglatuvchi oronimni tushunamiz.

Toponimlarning to‘g‘ri yozilishida transkripsiyaning ham o‘rni kattadir. Transkripsiya lotin tilidan olingan so‘z bo‘lib, “ko‘chirib yozish” demakdir. Demak, transkripsiya o‘ziga xos usul bo‘lib, so‘z yoki matnni imkon boricha qanday bulsa shunday ya’ni talaffuz etilishiga yaqin tarzda ifoda etishdir. Masalan: rus tilida mavjud bo‘lgan “Ы” harfi o‘rnida o‘zbek tilida “i” harfini ishlatish mumkin. Toponimlar atoqli otlardir. Shuning uchun u grammatik qonun-qoidaga ko‘ra har qanday holatda ham bosh harf bilan yozilishi lozim.

Toponimlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish dastavval ularni ifoda etuvchi ilmiy terminlar hamda, ularning mazmunini to‘g‘ri aniqlash, tizimlashtirishda o‘z aksini topadi. Chunki toponimik terminlarni to‘g‘ri qo‘llash, ushbu fanning kaliti sifatida uning predmeti va o‘rganish ob’ektlarini maqsad, vazifalarini to‘laroq ochib berish uchun xizmat kiladi.

Harbiy xizmatchilar toponimik atamalar va tushunchalarni o‘zlashtirishi “Harbiy topografiya” fanini o‘rganish uchun kalit o‘rnini utaydi. Shu sabali ushbu toponimikaga oid asosiy ilmiy terminlar mazmuni ishlab chiqildi. (1-jadval).

1-jadval

Toponimikaga oid asosiy ilmiy terminlar mazmuni

Termin	Mazmuni
Antonim nomlar	Mazmuni bir-birlariga teskari bo‘lgan nomlar: Yuqori Chirchiq - Quyi Chirchiq, Oq daryo, Qora daryo, Oqtosh - Qoratosh va boshqalar.
Antrotoponim	(yunoncha “antropos” - odam) - Kishilarga qo‘yiladigan atoqli ot, ularning ismi, otasining ismi, taxallusi yoki laqabi bilan atalgan nomlar: Sharob Rashidov, Beruni, Gagrın tumanlari.

Termin	Mazmuni
Arealli nomlar	(yunoncha “areal” - maydon, hudud) bir xil mazmun beruvchi yoki ayrim qo‘shimchalar tez-tez takrorlanib toponim yasaydigan so‘zlarning ma’lum hududda ko‘plab uchrashi yoki ma’lum bir hudud arealida keng tarqalgan, o‘ziga xos ko‘rinishdagi toponimlar. Toshkent, Pskent, Fazalkent, Chimkent kabi atamalarda “kent” qo‘shimchasining takror ishlatilishi tufayli arealli nomlar vujudga keladi.
Ikkilamchi nomlar	Nom ko‘chishidan hosil bo‘lgan, toponimlar. Masalan, Zarafshon daryosi - Zarafshon shahri, Sirdaryo daryosi – Sirdaryo (viloyati) shahri. Bu erda toponimik atama daryo nomidan shaharga ko‘chgan.
Detoponimizatsiya	Geografik nomlarning terminlarga, oddiy turdosh otlarga aylanishi: aynan shu yul bilan Janubiy Evropadagi Karst platosi nomidan, “karst” termini yoki Islandiyadagi issiq suv beruvchi Geyzer bulog‘i nomidan, “geyzer” termini hosil bo‘lgan.
Dromonim	(yunoncha “dramas” - chopish, harakat, yul) Ko‘cha, yullar nomini anglatuvchi toponimlar: Xon yuli, Buyuk ipak yuli, Parkent ko‘chasi, Amir Temur ko‘chasi kabi.
Etnotoponim	Yunoncha “etnos” - halq, elat demak, ya’ni halqlar, elatlar, millatlar, elatlar nomlari bilan ataladigan toponimlar.
Gibrid nomlar	Uzagi ikki va undan ortiq; tillarga xos so‘zlardan tashkil topgan toponimlar. Masalan: Kofirnixon daryosi arabcha “kofir - G‘ayridin” - dinsiz va forscha – “nixon” - yashirinmoq so‘zlaridan, Safedxojar qishlog‘i – “sofed” - forscha - oq, “xojar” - arab tilida tosh demakdir. Demak,

Termin	Mazmuni
	bu nom fors va arab soʻzlaridan tashkil topgan boʻlib, Oqtosh degan maʼno beradi.
Gidronim	(yunoncha “gidro” - suv, “onim” - nom, ism)- har qanday suv obʼektiga berilgan nomlarni anglatadi va ularni ayrim turlarga ajratib oʻrganish mumkin: potamonim- daryolar, soylar, irmoqlar; pelagonim - okean, dengiz, kurfazlar nomi, limnonim - koʻllar, quduq, hovuzlarning nomlari.
Indikator nomlar	(“indikator” - lotincha kursatgich) - toponimlarning mahalliy geografik terminlar ishtirokida hosil boʻlishi yoki maʼlum bir holda mavjudligidan dalolat beruvchi geografik nomlar. Masalan: toʻqay, utloq, qoʻm, tosh kabi tushunchalar asosida shakllanishi.
Zootoponim	(yunoncha “zoo” - hayvon) - hayvonlar nomini yoki ular bilan bogʻliq holatini anglatuvchi toponimlar.
Makrotoponim	(yunoncha “makro” - yirik) - yirik geografik nomlarning atoqli oti. Masalan: Hind okeani, Pomir togʻi misolida.
Memorial nomlar	mashhur shaxslar, buyuk voqealar sharafiga quyilgan nomlar. Mustaqillik maydoni, Beruniy tumani, Amir Temur xiyoboni va boshqalar.
Metafora yoki anatomik atamalar	koʻchma maʼnoni anglatuvchi tushuncha insonning tana aʼzolariga oʻxshash boʻlganligi uchun, unga qiyosan ataladigan nomlar. Masalan: hovuzning qulogʻi, gʻorning ogʻzi, ariqning labi, dengizga yarim orol shaklida turtib chiqqan joy - burun va boshqalar.
Mikrotoponim	(yunoncha “mikro” - kichik, “topos” - joy) - mahalliy aholigagina maʼlum boʻlgan kichik geografik obʼektlar nomi. Jarlar, quduq, ariqdar, mahalla, guzar va boshqa geografik nuqtalarning nomlari.

Termin	Mazmuni
Oronim	(yunoncha “oros” - tog‘, “onim” - ism) - orografik-relef, elementlar - tog‘, qir, adir, past, baland-liklarning nomi. Turkiston, Qurama tog‘ tizmasi, Bukantog‘, Tomditog‘ va To‘ron tekisligi va boshqalar.
Oykonim	(yunoncha “oykos” - uy, joy, makon) – shahar, qishloq aholi turar joylarining atoqli oti. Uning asosan uchta turi mavjud: a) Komonim - (yunoncha “komos” - qishloq) har qanday qishloqning atoqli oti. b) Polisonim (yunoncha “polis” - shahar) har qanday shaharning atoqli oti. v) Urbonim (lotincha “urbonus” - shahar), shahar ichidagi maydon, ko‘cha bozor va xokazolarning nomi. Masalan, Registon maydoni, Eski Juva bozori.
Speleonim	(yunoncha “speleon” - g‘or, ung‘ur), g‘or, ungur, er osti karst hosilalarining barcha turiga qo‘yilgan nomlar. Hazrati Dovud g‘ori, Zindanak karst qudug‘i va h.k.
Toponim	(yunoncha “topos” - joy) - har qanday geografik nuqta, joyning atoqli oti.
Topokalka	(fransuzcha “kalkua” - kalka - shaffof kog‘oz) - nomning mazmunini o‘zgartirmasdan aynan tarjima kilinishi. Masalan: Belog‘orsk - Oqtov, Siyoxob - Qorasuv va h.k.
Topoformant	(lotincha “formaks” - hosil kiluvchi) so‘z yasaydigan, lekin tilda mustaqil ishlatilmaydigan qo‘shimcha. Masalan: Sangzor, Toshloq, Sayrgoh toponimlarida -zor, -los, -gou; qo‘shimchasi tarzida kelishi. Fitotoponim - (yunoncha “fitos” - o‘simlik) - o‘simliklar turi, holatini anglatuvchi toponimlar, Olmazor, Bodomzor, Uzumzor, Olmachi, Ucharcha, Pistali va h.k.

Xulosa o‘rnida joy nomlarining mazmunini to‘g‘ri anglash qadimgi davrlardan boshlab ko‘pgina olimlarni qiziqtirgan. Jumladan, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Yusuf Hos Hojib, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Buxoriy kabi olimlar o‘z asarlarida joy nomlarining ma’no-mazmunini to‘g‘ri ishonchli va qiziqarli tarzda yoritib berganlar.

Toponimika XIX asrning oxirlari XX asrning boshlaridagina rivojlana boshladi. Asosan, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach uni o‘rganish yanada rivojlandi. Toponimlar nodir so‘z namunalari, qolaversa halq qadriyatlarini sifatida qadrlanib, unutila boshlaganlari esa qayta tiklandi. Shundan kelib chiqib “Harbiy topografiya” fani bo‘yicha kunikmalarni oshirishda toponimikaning eng asosiy tushunchalarini bilishi harbiy xizmatchilarga juda ham qo‘l keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy-hududiy tuzilish, toponimik ob’ektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. - Toshkent, 2011 yil
4 mart. № O‘R Qonuni – 276-1.
2. Nizomov A., Raximova G., Rasulova N.. Toponimika O‘quv qo‘llanma - T., 2013.
3. Mirakmalov M.T. Xalq tabiiy-geografik terminlari. T. O‘zMU. 2009.